

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY ONGNI SHAKLLANTIRISH: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA METODIK XUSUSIYATLARI

Xalilov Farxod Furqat o'g'li

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrası PhD, dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21259837>

Annotatsiya

Ushbu maqolada 5–6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari va metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy ong tushunchasi, uning tarkibiy qismlari - shaxslararo munosabatlar, empatiya, ijtimoiy qoidalar va axloqiy tasavvurlar - yosh xususiyatlari nuqtayi nazaridan yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, pedagog va oila hamkorligining ahamiyati, shuningdek, o'yin faoliyati va kommunikativ mashg'ulotlarning roli ko'rib chiqilgan. Maqolada ijtimoiy ongni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, interfaol usullar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish va kuzatish-tahlil metodlarining samaradorligi ilmiy asoslab beriladi. Olingan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy ijtimoiy xulq, muloqot madaniyati va jamoada o'zini tutish ko'nikmalarini shakllantirishda kompleks yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, axloqiy tarbiya, muloqot madaniyati, kognitiv rivojlanish, o'yin metodlari, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy kompetensiya

Ushbu maqolada Jahonda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'z-o'ziga ishonchni tarkib toptirish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, ilk yoshdan hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhiti barqarorligini ta'minlash, o'rganishga o'rgatish tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, samarali muloqotga kirishish ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Dunyoda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bolalarning ijtimoiy ongini shakllantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, ijtimoiy



moslashuvchanlik ko'nikmalarini tarkib toptirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish muhim dolzarflik kasb etadi.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiyalanuvchilarda hayotiy ko'nikmalar, jumladan, itimoiy moslashuvchanlik va shaxsiy salohiyatni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish, bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish" [7] alohida ustuvorlik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida" [1]gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" [4], 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [5], 2019-yil 8-maydagi PQ4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[7]gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[9]gi Qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ko'zda tutiladi.

Metodologiya

Maktabgacha pedagogika va psixologiyada katta maktabgacha yosh davri sifatida 5-7 yosh qabul qilingan.

Maktabgacha katta yosh davrida qoidaga muvofiq murakkab va uzoq davom etadigan jarayon sifatida nutqni o'zlashtirish jarayoni tugaydi. Til fikrlash va muloqot, ongli o'rganish obyekti vositasiga aylanadi. Chunki bolani maktabga tayyorlash vaqtida o'qish va yozishga o'rgatish boshlanadi, fonematik rivojlanish tugallanadi. Mazkur yosh davrida nutqning so'z boyligi jadal ortadi, uning grammatik qurilishi rivojlanadi. Shuningdek, bolalar sintaktik (gap tuzish) va morfologik (so'z yasash) qoidalarni egallaydi. P.S.Nemov ta'kidlab o'tganidek, muloqot vaziyatli tavsifdan bilish jarayoni obyektiga aylanadi. Bolalar shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligiga alohida e'tibor qarata boshlaydi[75, 45-b.].



Maktabgayaa yoshda idrok o'zining daslabki affektiv tavsifini yo'qotadi: emotsional va perseptiv jarayonlar farqlanadi, tahlilga, aniq maqsadga yo'nalgan, ongli idrok etish shakllanadi. Bolada erkin harakatlar – izlash, e'tibor qaratish, kuzatish, nutq yordamida turli narsa-buyumlar va ular o'rtasidagi munosabatlarning holati, belgilari va sifatlarini nomlashdan faol foydalanish qobiliyati namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, insonning o'z-o'zini anglashi, o'zini bilib olishi murakkab muammolardan biri bo'lib, ilk bora Suqrot tomonidan faqat shaxs ichki dunyosini bilish tamoyili nuqtai nazaridan o'rganilgan edi. Shaxsning ongli hayotida o'z-o'zini anglashining ahamiyati shundaki, ushbu fenomen odamni amaliy faoliyatga kirishishdan oldin "o'zingni boshqarishni o'rganish uchun o'zingni bilib olishing lozim" degan tamoyil asosida yashashga o'rgatadi. R.Dekart ong tushunchasini tashqi dunyoni emas, faqat o'zinigina aks ettirishga qodir dunyo sifatida ta'riflab, o'zini bilib olish, ya'ni o'zini anglash tushunchasini kiritdi[159]. O'z-o'zini anglash o'sha paytda atrof-muhitdan ajralib, o'zini izolyasiyalagan holda o'z-o'zini kuzatish (introspeksiya)ga teng hisoblangan. Keyinroq V.Vundt[33] o'zini anglashni his-tuyg'u elementlaridan tarkib topuvchi va ong mazmunidan ajralib turuvchi ongning bir holati sifatida belgilagan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish tuzilmasida kognitiv-motivasion, faoliyatli, refleksiv-baholovchi va xulq-atvor bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Eng





| № r/p | Bosqichning nomlanishi va mazmuni | Vazifalari | Ko'rsatkichlari | Faoliyatni tashkil qilish shakllari |
|----------|--|---|---|--|
| 1. | Kognitiv (kognitiv-motivasion): bolalar tomonidan shaxsning huquq va majburiyatlari, xulq-atvor me'yorlari to'g'risida bilimga bo'lgan ehtiyojni, o'zaro munosabatlarning ayrim usullarini o'zlashtirish muhimligining anglanishi | Bolalarda bilim olishga ijobiy munosabatni shakllantirish, ushbu jarayon ahamiyatini idrok etish va tushunishda faollikka erishish | - kognitiv va ijtimoiy motivasiyani oshirish; - shaxsning tashabbuskorligi va faolligini oshirish; - bilim olish jarayonini shaxsiy ahamiyatga ega sifatida anglash | - o'z tajribasiga murojaat qilish; - muammoli vaziyatlar; - ishchanlik o'yinlari; - axloqiy suhbatlar |
| 2. | Faoliyatli: bolalar tomonidan tengdoshlari bilan konstruktiv o'zaro munosabatlarga doir me'yor va usullarni o'zlashtirish | Tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarning me'yorlari va usullari interiorizatsiyasi, bilimlarni o'zlashtirishdan ularni qo'llash darajasiga o'tish | - o'zaro aloqalarda, munosabatlarni o'rnatishda tashabbuskorlikning mavjudligi; - o'zaro aloqa usullari haqidagi bilimlarni amalda situativ qo'llash | - axloqiy vaziyatlarni hal qilish; - hamkorlikdagi faoliyat; - didaktik o'yinlar; - trening |
| 3. | Refleksiv-baholovchi: o'zaro aloqalarni konstruktiv yo'llar bilan ahamiyatini tushunish va | O'z ichki holatini hisobga olgan holda xatti-harakatlar modelini erkin va ongli ravishda tanlash | - o'zi va boshqalarni qadriyat sifatida anglash; - harakatlar motivlarini tushunish va ham o'z faoliyati, ham | - axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish; - trening; - o'z-o'zini kuzatish |





| | | | | |
|----|---|---|--|---|
| | refleksiv faoliyatni amalga oshira olish (o'z xatti-harakatlari, ishlari, o'z ichki holati, his-tuyg'ularini anglash va baholash, o'z bilimidagi farqni anglash, o'z yutuqlarini ko'ra olish) | qobiliyatini rivojlantirish, ushbu holatni tushuna bilish | boshqalarning faoliyatiga adekvat baho berish; - mavjud ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, xatti-harakatlar oqibatlarini oldindan ko'ra olish qobiliyati | |
| 4. | Xulq-atvorga oid: turli xil shakl va vaziyatlarda o'zaro munosabatlarni bilish va mavjud tajribadan foydalanish | Bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni yanada takomillashtirish; o'zaro munosabatning o'zlashtirilgan me'yor va usullarini kengroq muloqot sohasiga o'tkazish qobiliyatini rag'batlantirish | - kognitiv va ijtimoiy faollikning ustunligi bilan boshqalarga yaqqol yo'naltirilganlik; - harakat va mulohazalarda tanqidiylik, moslashuvchanlik va mustaqillik; - o'z individualligini adekvat usullar bilan ifoda etish; - turli vaziyatlarda xatti-harakatlarning o'zgarishini tushunish qobiliyati | - ishbilarmonlik o'yinlari. -real vaziyatlar. - o'z-o'zini kuzatish |

3.1-jadval

muhimi, taklif etilayotgan bosqichlarning har biri avvalgisining sifat o'zgarishlariga uchrashini hisobga oladi va yanada boyitib boradi (1.3.1-jadvalga qarang).

1

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongini shakllantirish bosqichlari



Kognitiv-motivasion bosqich bolalar tomonidan shaxsning huquq va majburiyatlarini bilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanganligi, ularga o'z munosabatini ifoda etish, xulq-atvor me'yorlarini bilish va o'zaro munosabatlarning muayyan usullarini o'zlashtirishning muhimligini anglab yetishni nazarda tutadi.

Faoliyatli komponent maqsad qo'yish, harakatlarni rejalashtirish, konstruktiv o'zaro munosabatlarning me'yorlari va usullarini o'zlashtirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Refleksiv-baholovchi komponent bizning fikrimizcha, o'z xatti-harakatlari, ishlari, ichki holati, his-tuyg'ulari, mulohazalarini anglash va baholash qobiliyati, o'z bilimlari doirasini anglash, o'z yutug'ini ko'ra olishni nazarda tutadi.

Xulq-atvor komponenti turli shakl va vaziyatlarda o'zaro hamkorlik usullarini bilish va mavjud tajribadan foydalanishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy xulq-atvor quyidagi asosda qurilishi mumkin: o'z niyat va istaklari o'rtasidagi "Men"ni anglab olish orqali; insonlar bilan munosabatda o'z "Men"ni anglab olish; jamiyatdagi qadriyatlar, axloq va madaniyat me'yorlari bilan bog'liqlikda o'z "Men"ni anglab olish.

Taklif etilayotgan bosqichlar va ijtimoiy hamkorlik sohalarini hisobga olgan holda, ijtimoiy ongni shakllantirish darajalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi tarzda aniqlashtirildi (1.3.2-jadvalga qarang).

Natija

1.3.2-jadval

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish darajalari va o'zaro birgalikdagi faoliyatning namoyon bo'lishi

| Ijtimoiy ongning shakllanish darajasi | Hamkorlikdagi faoliyatning namoyon bo'lishi | | |
|---------------------------------------|--|--|--|
| | O'zini tushunish, o'z-o'ziga munosabat (Men-obraz, Men-konsepsiya) | Tengdoshlarga munosabat | Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatga (ta'lim, muloqot, ijtimoiy obyektlar) munosabat |
| Undovchi | Bilishga intilishning ma'lum bir darajasi, bu | Kishilar o'rtasidagi munosabatlar tizimini tushunishga | Muayyan faoliyatda ishtirok etish muhimligini |





| | | | |
|------------|--|---|--|
| | <p>jarayonni shaxsan ahamiyatli deb tushunishning past darajasi. O'zini namoyon qilish uchun nomaqbul (agressiv) usullardan foydalanishi mumkin, o'z emotsiyalarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladi; o'zini namoyon qilish intilmaydi.</p> | <p>intilish namoyon bo'lmaydi. O'ziga yo'nalganlik ustunlik qiladi. Boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatning yo'qligi, yuqori tashvishlilik, agressivlik. Yordam ko'rsatishi mumkin, lekin bu odatda sheriklarning emotsional jozibadorligiga bog'liq.</p> | <p>anglashning past darajasi. Unda qatnashish orqali faol harakatlardan qochadi, ijrochi pozitsiyasini afzal ko'radi. O'zaro hamkorlikning minimal tajribasi.</p> |
| Refleksiv | <p>O'zini namoyon qilishga intiladi. O'z-o'zini baholash maqbul darajaga yaqin. Shaxsiy motivlarini anglaydi.</p> | <p>Atrofdagilarga diqqat bilan e'tibor qaratadi. Tengdoshlari bilan muloqotda u do'stona hamkorlik usullaridan foydalanishga harakat qiladi.</p> | <p>Harakatning turli xil variantlarini ko'rib chiqishi mumkin, ammo har doim ham vaziyatni hisobga olmaydi, odatdagi harakatlardan foydalanadi.</p> |
| Integrativ | <p>O'z individualligini maqbul usullar bilan ifoda eta oladi, o'z emotsiyalarini boshqara oladi.</p> | <p>O'zaro munosabatlarda xulq-atvorning maqbul shakllaridan foydalanishga harakat qiladi. O'zining va o'rtoqlarining manfaatlarini ham hisobga olgan holda o'zaro</p> | <p>Axloqiy kategoriyalar asosida vaziyatni baholab, qaror qabul qiladi. O'z faoliyatini tahlil qiladi. O'zaro munosabatlar jarayonida faol, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga</p> |





| | | | |
|--|--|---|---|
| | | munosabatlarni o'rnatadi, boshqa uchun muhimroq vaziyatda yo'l berishga tayyor. | va barcha turdagi majburiyatlarni ijodiy bajarishga tayyor. |
|--|--|---|---|

Muhokama

Zamonaviy maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yetakchi tendensiyasi bolalarning eng muhim intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishi ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ong – shaxsni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti uchun (jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy rivojlanishi) ongli ravishda faoliyatga, bola tomonidan qabul qilinayotgan real hayot obrazi, jumladan, bolaning tashqi muhitni to'g'ri qabul qilish darajasi, bolani jamiyat taraqqiyotiga o'zi ulushini qo'shishga tayyorlash jarayoni.

Ijtimoiy ong tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etsa, odatiy va nazariy ong komponentlari bolalarning kundalik hayotiy faoliyati jarayonida, qiziqish va qobiliyatlari, bilimlari, irodaviy sifatlari, hayotda egallagan mavqelari va mentalitetga bog'liq individuallik xarakteriga egadir.

Bolalarda ijtimoiy intellekt shaxslararo muammolarni hal etish, ijtimoiy xulq-avtor strategiyalarini tanlash, ularning ijtimoiy muammolarni hal etishda qo'llay olish bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Bunda bola shaxsining o'z-o'zini baholash olishi, emotsiya va ichki ustanovkalari asosiy rol o'ynaydi. Ijtimoiy intellekt – bu ma'lum bir ijtimoiy muhit ta'siri ostida ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadigan individ intellektidir.

Ijtimoiy ongning tuzilmasini kognitiv-motivatsion, faoliyatli, refleksiv-baholovchi va xulq-atvor komponentlari yig'indisi sifatida talqin qilish va ularni bir paytning o'zida mazkur jarayonni amalga oshirish bosqichlari sifatida qabul qilish mumkin. Taklif etilayotgan bosqichlarning har biri avvalgi darajaning yangilanishlarini hisobga oladi va yanada boyitib boradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish uchun ularning o'zaro hamkorlik usullari, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatli yo'nalganlik to'g'risidagi bilim darajasini aniqlash, boshqalar bilan samarali muloqotda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish darajasi, muayyan vaziyatga muvofiq ma'lum bir





xulq-atvor yo'nalishini oqilona tanlash qobiliyati, shuningdek erkin fikr bildirish imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatini o'rganish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yhati:

- 1.O'zbekiston respublikasi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi/takomillashtirilgan ikkinchi nashr/Toshkent-2022
- 2.Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi 528-sonli "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizomi.
3. "Maktabgacha ta'lim - tarbiya Davlat standartlari". T.: 2020
- 4.O'zbekiston respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonuni.
- 5.F.R.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". -T., "Ma'naviyat", 2013
- 6.F.R.Qodirova va boshqalar "Maktabga tayyorlov guruhida nutq o'stirish ta'limiy faoliyatlari"- Toshkent-2009.
- 7.F.R.Qodirova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda diologik nutqni rivojlantirishning psixologik omillari" Toshkent-2016.

